



THE GENDER FACTOR IN THE DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abdurashid Mirzakhmedov

Professor of Namangan State Technical University
Namangan, Uzbekistan

Sevara Pardaeva

Doctoral student of Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender, intersex, transsexual, male and female status, sex change.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: One of the problems associated with the demographic quality of the population at a new stage of development of society is transsexualism among young people, that is, rejection of their own sexual status and transition to the status of the opposite sex. Psychological dissatisfaction of the population with their sexual status is expressed in the desire to see a person of their own sex in a person, as well as in the maximum "transfer" of their appearance to a woman. Therefore, the purpose of the article is a socio-philosophical analysis of the problems of violation of human sexual identity. In the article, the authors sought to make scientific conclusions based on a comparative analysis of foreign and domestic sociological studies.

JAMIYATNING DEMOGRAFIK TARAQQIYOTIDA JINS OMIL

Abdurashid Mirzaxmedov

Namangan davlat texnika universitetining professori
Namangan, O'zbekiston

Sevara Pardaeva

Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti,
Jizax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jins, qo'shjinslilik, transseksuallik, erkak va ayol maqomi, jinsni o'zgartirish.

Annotatsiya: Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida axolining demografik sifatiga aloqador muammolardan biri yoshlar

orasida transseksuallik, ya'ni shaxsning o'z jinsiy maqomidan voz kechishi va o'zga jins maqomiga o'tishidir. Axolining o'z jinsiy holatidan ruhiy noroziligi, o'z jinsini qarama-qarshi jinsda xush ko'rishi, o'zini maksimal darajada tashqi qiyofasini ayol qiyofasi va hulqiga "ko'chirishi"da ifodalanadi. Shu bois maqolaning maqsadi shaxsning jiniy identikligining buzilishi muammolarini ijtimoiy falsafiy taxlilidir. Maqolada mualliflar xorijiy va milliy sotsiologik tadqiqotlarning qiyosiy taxlillari asosida ilmiy xulosalar qilishga intilgan.

ГЕНДЕРНЫЙ ФАКТОР В ДЕМОГРАФИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Абдурашид Мирзахмедов

Профессор Наманганского государственного технического университета

Наманган, Узбекистан

Севара Пардаева

докторант Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендер, интерсекс, транссексуализм, мужской и женский статус, смена пола.

Аннотация: Одной из проблем, связанных с демографическим качеством населения на новом этапе развития общества, является транссексуализм среди молодёжи, то есть неприятие собственного сексуального статуса и переход в статус противоположного пола. Психологическая неудовлетворённость населения своим сексуальным статусом выражается в стремлении видеть в лице человека своего пола, а также в максимальном «переносе» своей внешности на женскую. Поэтому целью статьи является социально-философский анализ проблем нарушения половой идентичности человека. В статье авторы стремились сделать научные выводы на основе сравнительного анализа зарубежных и отечественных социологических исследований.

Kirish

Odam Ato va momo Havodan boshlab bashariyat millat va elatlari demografik ilohiy qonuniyatida ko'payganlar. Tabiatning taraqqiyoti jinslarning maqomi va funktsionalligi bilan har qanday flora yoki fauna dunyosining yashamog'i – jinsining tabiati, sog'lomligi, biologik harakatchanligi asosida yangi turlar kelib chiqqan. Buyuk olim Charlz Darvin "Tabiiy tanlanish",

“Yangi turlarning kelib chiqishi” asarlarida “Irsiyat” qonunini kashf etishi bilan evolyutsion nazariyani kashf etgan. Jamiyatning demografik taraqqiyotida “jins” g‘oyasi ijtimoiy-gumanitar bilim sifatida milliy mafkuraviy jihatdan nazariy va amaliy kashf etilgan tadqiqot predmeti hisoblanadi. Odamzotning biologik jinsi muammosi zamonaviy ijtimoiy gumanitar fanlarda qizg‘in muhokama etilishi bir qator baxsli jihatlarini ochib berdi. Masalaning nozikligi musulmon mamlakatlarida jinsga doir ilmiy tadqiqotlar murakkab ilohiy muammoligidan olimlar e‘tiboridan chetda qoladi. Ikkinchidan, G‘arb madaniyatida jins muammosini inqilobiy yechimlari inson huquq va erki doirasida muhokama etilib, jins o‘zgartirish ruhiy xastaliklar ro‘yxatidan chiqarildi. Uchinchidan, tashqi “ommaviylik” omili ta‘sirida odamning o‘z jinsidan “xafsalasining pir” bo‘lishi, o‘zga jinsda baxtlilikni his etishi holati shaxsiy huquq doirasida qabul qilinmoqda [6].

Millatning demografik ma‘naviyatida jins masalasi tabiiy ravishda “shaxs, jamiyat va davlat” munosabatlarini tartibga solishning ijtimoiy negizi hisoblanadi. Zero, tabiatdagi o‘simlik va xayvonot olamining tiriklik maqsadi o‘zlaridan keyingi nasllarning davom ettirishdir. Nasllarning davomiyligi esa sog‘lom, yashovchan, tashqi olam ta‘siriga qarshi turish immuniteti bilan ta‘minlanadi. Irsiyat qonuni nasl yoki zotda ajdodlarning jismoniy-ruhiy belgi va xususiyatlarini yangi avlodlarda saqlanib qolishi, “palakning tozaligi” farzandlarga ota va onasining jismoniy va intellektual salohiyatini o‘tganligida namoyon bo‘ladi [5, 20 b]. Genetika fani ota-onaning jismoniy va ma‘naviy jihatdan biologik fazilatlarini avlodlarga transformatsiyasi, ulardan go‘zal tana bilan farosat nafosatning vorisiyligini tadqiq etadigan bilimlar sohasidir. Shu ma‘noda, keyingi yillarda jins falsafasining tadqiqi o‘zbek jamiyati uchun ilmiy tadqiqotlarini fanlararo amalga oshirish orqali davlatning taqdirini ijobiy tomonga o‘zgartirish imkonidir.

Odamzotning genetik taraqqiyotida oilaning vujudga kelishi bilan ijtimoiy antropologik jihat va xususiyatlar ta‘minlangan. Oilalarning rivoji tufayli odamlar o‘zining sog‘lom avlodlarni davom ettirishga imkon yaratishi poligamiyadan monogamiyaga o‘tish orqali jins ta‘lim-tarbiyasi tartibga solingan. Avlodlarning turli oilalardan bo‘lishi qon qo‘shilishini oldini olib, turli qavmlarga mansub odamlarning “zot” belgi va xususiyatlarining eng yaxshi sog‘lom jihatlarini uyg‘unlashtirishi bilan demografik barqarorlikka erishgan [5]. Kishilarning irsiy sifati ekologik muhit va to‘g‘ri ovqatlanish bilan ijobiy o‘zgarishi ta‘minlangan. Natijada, avlodlarning irsiy rivojida oila, urug‘, qavm, zot kabi omillar hosil qilingan. Bu hol har bir qavmda “yigit-erkak” va “qiz-ayol” jinsini ijtimoiylashuvida milliy-diniy tarbiyalashning an‘ana va qadriyatlarini tarixan shakllantirgan. Germofrodit “qo‘shjinslilik”ni anglatasa, “transseksuallik” undan farqli to‘liq jins belgilariga ega shaxsning qarama qarshi jinsga tibbiy yo‘l bilan o‘tishni tanlashidir. Shu ma‘noda mahalliy axoli orasida “xunasa” atamasida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, transseksuallik shaxsning psixologik jihatdan o‘z jinsidan voz kechishi orqali o‘zga jinsga “almashtirish”dir [4].

Ma‘lumotlar va metodlar

O'zbekistonda konstitutsion islohotlar o'zbek halqining milliy ijtimoiy madaniyati, boy ma'naviy merosining ijtimoiy tajriba sifatida avlodlarga yetkazish tarixiylik va mantiqiylikka tayanadi. Shu ma'noda jins falsafasining ilmiy tadqiqoti umumiylik, alohidalik va xususiylik tamoyillari etnokonfessional an'ana va qadriyatlar asosida taxlili ilmiy uslubiy maqsadga muvofiqdir. Shu ma'noda demografik taraqqiyotda obyektiv va subyektiv omillar asosida jins falsafasini ilmiy tadqiqi o'ta nozik masala sifatida umumnazariy metodlardan milliy manfaatlarni e'tiborga olgan holda fanlararo tadqiqini ham talab etadi. Shu ma'noda OAV ma'lumotlari bilan birga horijiy va milliy ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda ilmiy xulosalarni chiqarishni taqozo etadi. Shu ma'noda ishlab chiqarish va iste'mol tajribasining ilmiy-nazariy tadqiqoti tarixiylik va mantiqiylik asosida ijtimoiy-madaniy yondashuvlarni talab etadi. Sharq halqlarining umuminsoniy diniy an'ana va qadriyatlari bilan tadqiqot natijalari ilmiy mustahkamlandi.

Tadqiqot muhokamasi va natijalar

O'zbek halqi demografik madaniyati islom dini aqoidlari bilan oila va nikoh munosabatlarini tartibga solib, naslning "tozaligi"da otaning mas'uliyatiga yuklangan. Millatning demografik sifati masalasida jannatmakon Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf otadan farzandlarga eng katta meros "nasl-nasabli, iymonli, sohibjamol soliha qizga uylanishi" oilaning baxtiyorligi, deya vasiyat qilganlar [8, 214 b]. Irsiyatning muayyan bir yo'nalishda ta'sir tufayli organizm belgilarining avlodlar osha turg'unligi ta'min etiladi. Irsiyat organizmlar ontogenezinining turg'unligi, ontogenez bosqichlari ketma-ketligijarayonida moddalar almashinuvi xususiyatlarini belgilab beradi. Oila va nikohning mustahkamligi demografik barqarorlikning poydevoridir. Bu hol o'zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida "zot", "jins" kabi irsiy belgi xususiyatlarni ilmiy tadqiqi inson huquqi va erkinligi kontekstida muhokama etish siyosiy jihatga ega bo'lib qoldi.

O'zbek millatining demografik o'sishini ilmiy boshqarishning izdan chiqishi oila va nikoh institutining devalvatsiyasi, avlodlarning jismoniy va ruhiy nochorligi, ayniqsa, jinslardagi "trans" holati muhokamani kechiktirib bo'lmaydigan muammoga aylantirmoqda. Ommaviy axborot vositalarida yigitlarning o'z jinsini o'zgartirganligi, horijda "tungi kapalak"lar politsiya tomonidan ushlangani, yurtimizda ichki ishlar xodimlari ayollar libosidagilarni aniqlanishi bilan fikrimizni dalillaymiz .

Tabiatda biologik jihatdan jins nasllarni davomiyligini ta'minlovchi erkak yoki urg'ochilikni anglatuvchi belgilarning fiziologik va morfologik belgilarda namoyon bo'ladi. Bu belgilar o'simlik va hayvonlarning tabiat qonunlariga ko'ra ko'payishini anglati-da, tabiiy birlik va yaxlitlikning kafolatidir. Tarixan bir tanada ikki xil jinsga tegishli bo'lgan belgilar ham bo'lgan. Bu holat tibbiyotda "germofroditizm" urg'ochilik va erkaklik jinsiy bezlari bitta organizmning o'zida rivojlanishiga tushuniladi. Tabiat ilohiy asoslarda tirik jonzotlarda tananing morfologik,

fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga ko'ra mavjudlik holatidagi xatti-harakatlarni amalga oshirishga mos jins belgilarini shakllantirgan. Natijada, jins morfofiziologik jihatdan belgilar birlamchi va ikkilamchiga bo'lingan: jinsiy a'zo va bezlar, fiziologik shakl va yo'li, gametalar hosil bo'lishi va urug'lanish birlamchi bo'lsa, tananing jismoniy holati, tuzilishi, tana a'zolaridagi mushaklar, qo'l va oyoqlarning jundorligi va hajmi, ovozning dag'alligi yoki mayinligi ikkinchi guruh belgilarni hosil qiladi [4]. Erkakda g'azab, jahl bo'lsa, ayolda gina va araz axloqi, ijtimoiy munosabatlarda birinchisida axloqiylik, ikkinchisida nafasot (go'zallik) rivojlanadi.

Tibbiy lug'atlarda odamlarning jinsiy belgilarini "Erkaklik jinsiy bezlari (urug'donlar) spermatozoidlar, urg'ochilik jinsiy bezlari (tuxumdonlar) tuxum hujayralari ishlab chiqaradi. Spermatozoidning tuxum hujayra bilan qo'shilishi tufayli zigota hosil bo'ladi. Zigotadan yangi organizm rivojlanishi ilohiy hodisadir. Jinsiy bezlar ishlab chiqaradigan gormonlar organizmning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning shakllanishi va fiziologik jarayonlarning boshqarilishida muhim ahamiyatga ega"ligi ta'riflangan [4]. Tabiatning demografik populyatsiyasida urug'lanish "X" va "Y" xromosomal urug' hujayralarning X xromosomal tuxum hujayra qo'shilish paytida teng bo'ladi. Natijada qo'shilish tufayli "XX va XY" xromosomal zigotalar urg'ochi va erkak organizmlar tengligida rivojlanadi. Bu tenglikda "X" xromosomal gameta ayolniki, erkak organizmida esa "X va Y" xromosomal gameta hujayralari asosida yangi organizmga asos solinadi.

Texnogen sivilizatsiya taraqqiyot darajasi feminizmning radikal jihatida gender tengligida jinsning transseksual holatiga imkon yaratdi. Bolada o'zining jinsini anglashi uch yoshidan boshlanib, jinsiy rivojlanishning asosiy belgilari oilaviy muhitda yuz beradi. Bu muhitning asosiy jihatida otaning ijtimoiy maqomi, onaning etnomadaniy qiyofasi oiladagi farzandlar o'g'il yoki qizning jinsiy muvozanati alohida ikkilamchi xususiyatga ta'sir etadi [2, 16 b]. Chunki, o'zbek oilasida otaning ijtimoiy maqomi tarbiyaviy muhitni belgilab berishi bilan jinsiy tarbiyaga mas'uldir. Biz qizlar orasida katta bo'lgan o'g'il bolalarning fe'l-atvorida qizlarga xoslik namoyon bo'lsa yoki aksincha holatni ham yodda tutamiz. Shu ulamolarimiz farzand tarbiyasida o'g'il va bola tarbiyasiga shon-sharaf, or nomus qadriyati sifatida e'tibor berganlar [9, 619 b].

Singillar orasida qo'g'irchoq o'ynab, oshxonada turli taomu pishiriqlarni pishirgan, bichish-tikish ishlarini faol o'rgangan o'g'il bolalarning "ayollashuv" ruhiyatida psixologik jihatdan "erlik" tuyg'ularini me'yoriy his etolmay qoladi. Ayni vaqtda o'g'il bolalar orasida o'sgan yolg'iz qiz akalari bilan hovlida yer chopib, mol-qo'y boqqan, futbol o'ynab, kurash tushgan qizlar o'z tanasida erlik belgilariga ega bo'lishi tabiiy holdir. Shu bilan birga tarixiy taraqqiyotda avlodlarning jins tarbiyasida "matriarxal" yoki "patriarxal" jihatlariga "ijtimoiy buyurtma" ham muammoni dialektik tendensiyalarini belgilab bergan. Demografik taraqqiyotda ijtimoiy nazoratning izdan chiqishi tufayli balog'atga yetgan yoshlarning jinsiy o'zligini anglashida

murakkab muhitga tushib qolmoqda. Natijada, transeksuallik psixologik yetilib, o'z jinsidan ko'ra o'zga jinsga mayl jo'sh o'rib ketmoqda. O'g'il bolalar qizlarning liboslari, pardoz-andoziga berilishi, qizlarda esa aksincha holatlar yurish turishda ham ovoz "yo'g'on va ingichka" (tembrlar) diksiyalarida namoyon bo'ladi. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada masala ijtimoiy-huquqiy tartibga solingan "feminizm va maskulinizm" tabiiy "me'yoriy" holatiga rasmiylashtirilgan [10, s. 69].

Erkak axloqida turli tuman zararli odatlar alkogolizm, tamaki chekish, xavf-xatarli jismoniy mashqlarga moyillik, muammolarni kuch bilan hal etishga intilish kuzatilsa, ayollarda "dahanaki" baxs, muammosini hal etish uchun turli tuman "noz-karashmalar", "ko'z yoshi" kabi qirq eshakka yuk bo'ladigan xiyallarda namoyon bo'ladi. Oilada otaning avtoritarizmi, g'azabi sezilib tursa-da, oqila ayol to'y harajatlarini erga qildiradi, o'qiyotgan farzandiga pulni dadasidan undiradi. "Dadang bilmasin", deb talaba qiziga "tishini kovagi"dagi pulni olib beradi.

Erkakka or nomus, tartib-intizom, shon-shavkat, oilaning obro'-e'tibori saqlash uchun g'azab va jaxl, adolat uchun urishqoq, va'dada qat'iylik, oilaning moddiy va ma'naviy ta'minotida mustaqil yechim va qaror qabul qilish, boshqaruv tizginini o'z qo'lida ushlash, axli ayoli uchun mardonalik va jasorat kabi fazilatlar xosdir. Xotin-qizlarga sabr-toqat, oqizalik va er panoxida bo'lish, bo'ysinish, malohat va latofat ila erga va farzandlarga mehribonlik, ovoz va tovushida mayinlik, nazokat, xushmuomalalik, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishda kelishuvchanlik, fe'l atvorida uy yumushlarini bajarishdan zavq oluvchi, kuchli qo'rkuv hissiyoti xosligi bilan ajralib turadi. Erkaklarda oilaviy gegemonlik, ayollarda esa nafosatli uy-ro'zg'or ishlariga mayl o'z ifodasini topadi.

Demografik taraqqiyotning ijtimoiy sifati nafaqat axolining miqdoriy o'sishi bilan birga sifat jihatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "2022-yil yanvarida O'zbekiston aholisi 35,3 million kishiga, 2021-yil boshidagiga nisbatan 712 ming kishiga (2,1%) ko'paydi" [11]. Demografik o'sishning yuqoriligi axoli tarkibida yoshlar salmog'ining yuqoriligi bilan muayyan jins tarbiyasiga bog'liq jihatlarga ega bo'ladi. Jamiyatning "yosharishi" axolining katta avlodini miqdoriy qisqarishi etnokonfessional merosning qadrsizlanishi bilan birga ijtimoiy xos tomon yo'l ochadi. Oila va nikoh munosabatlarining "o'limi"ning ijtimoiy determinanti ham demografik tuzilmalarda katta avlod salmog'ining pasayishi bilan bog'liqdir. Keyingi yillarda "yolg'iz ayol", "yolg'iz ona" kabi holatining ijtimoiy institutlashuvi ham fenomenal holat hisoblanadi. "Makro oila"dan "mikro oila"ga ijtimoiy transformatsiya jarayoni demografik sifatga salbiy ta'sir etmoqda. "Yolg'iz ona" maqomi davlat miqyosida ijtimoiy muhofazasi, ya'ni erning "alimenti" evaziga kun kechirish ayol axloqiga singib bormoqda. Chunki, psixologlar "Oila nimaga kerak?", "Er nimaga kerak" axmoqona chaqiriqlari jins tarbiyasiga haloqatli ta'sir etmay qolmaydi [12].

G'arb demografik taraqqiyotida Germaniya "Vaterland" tajribasi "fuqaro o'z ismi va jinsini o'zgartirishi" haqida me'yoriy aktning qabul qilinishi tufayli sud-huquq tizimiga murojaatlar orasida nafaqat ismini o'zgartirish, balki jinsini o'zgartirishga arizalar ko'pligini olimlar o'z tadqiqotlarida kuzatganlar. Dunyoning gender siyosatida erkak avtoritarimizmiga asoslangan nemis xalqi orasida jins identikligini o'tgan asrning oxiridayoq buzilishi ijtimoiy qiziqarli faktidir [2]. Chunki, tarixan Germaniya "Otamakon" hisoblanib, erkak kishi oilani boquvchisi, "haqiqat odamning kuchida", "Oliy irq, kuchlilar yashashga haqli, kuchsizlar unga bo'ysinishi" haqida yashagan millatning ruxiyatidagi jiddiy o'zgarishdan nishona deb hisoblaymiz. Masalaning mohiyati o'zga Yevropa davlatlarida tibbiy maskanlarda erkaklarning o'z jinsini ayolga o'zgartirish borasidagi murojaatlarning yildan yilga ortib borishi bilan ham dalillash mumkin [3]. Biz olimlarning tadqiqotlarida asosan erkaklarning tibbiy yo'l bilan o'zga jinsga o'tish istagi ustuvorligini aniqladik. Ayni Yevropa jamiyatida feminizmning radikallashuvi tufayli ayollarning sportida og'ir atletika va o'zga "qoidasiz janglarda" qonli musobaqalarda ishtiroki biznes sifatida ommalashuvini ham kuzatish mumkin.

Har qanday davlat yoki xalqning demografik taraqqiyotida barqaror axolining o'sishi bilan birga milliy-diniy oilaviy an'ana va qadriyatlarning tiklanishi bilan millatning milliy qiyofasini saqlab qolinadi. Axborot texnologiyalarining globallashuvi O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi umuminsoniy qadriyatlarning milliy madaniyatga ta'siri kuzatilmoqda. Biz "Ommaviy madaniyat"ning targ'ibida xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston hukumatiga inson huquqlari doirasida "bosimi"ni ham nazarda tutmoqdamiz. Shu bois, milliy manfaatlarining muhofazasi davlat siyosatining strategiyasi bo'lishi darkor.

Tadqiqotdan olingan yana bir muhim natija ta'lim tizimidagi tajribalarning davomiyligi bo'lib, milliy pedagogikani shakllantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyo ta'lim tizimida eng innovatsion ta'lim standart va texnologiyalari o'zbek xalqi yosh avlodini ilm-fan, madaniyat sohasida yuksak chuqqilarga olib chiqolmas, bilaks ta'lim obyektni o'zligidan mosuvo etib, ma'naviy qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois axolining demografik sifati deganda biz yoshlarni oilaviy muhitda erkak va ayol axloqida tarbiyalash, milliy odob ijtimoiy g'oyaga aylanishi muammoning samarali yechimidir. Zero, o'zbek jamiyatidagi gender tengligi qiz bola, xotin va ayolni an'anaviy obro'-e'tibori, ilohiy muqaddaslik maqomidan ayirib, tadbirkor, ishchi, chevar, paxtakorga bir tomondan, suniy ravishda deputat, xokim kabi rahbar lavozimlari bilan ikkinchi tomondan shaxs milliy o'zligini anglashida ijtimoiy sifatni belgilab beradi. Erkaklarning sport turlaridagi ayollarning ishtiroki, ayniqsa qizlarning "maskulinlashuvi" ayol jinsini tubdan erkaklashtirdi. Jins tarbiyasi ayol va erkak ilohiy bir butunlikni hosil qilishi bilan ijtimoiy funktsionalligi asosida demoetika va estetikani hosil qiladi.

Xulosa

O'zbekistonda dunyoviy ijtimoiy davlat qurilishi ayol va erkakning milliy-diniy an'ana va qadriyatlar asosida tarbiyalanishi bilan ijtimoiy taraqqiyotni belgilab beradi. Maqolada fundamentalizm emas, balki milliy turmushda ikki jinsning o'zaro munosabatlarini tartibga solish orqali oila va nikoh munosabatlarni barqarorlashtirish g'oyasi olg'a surilmoqda. Davlat miqyosida gender tengligi deganda jismoniy tenglikka intilish, ayolning jinsiy identifikatsiyasidan mosuvo qilish millatning kelajagiga soya soladi. Tenglik g'oyasi hamisha borliqda musobaqa, raqobat, nizo va mojaroning kaliti ekanligi "qoyadagi ko'prikdan o'tayotgan ikki echki" hikmatida o'z ifodasini topadi.

Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida jinsiy tarbiyaning izdan chiqishi, ta'lim va tarbiyaning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. O'zbek oilasida milliy odat va an'analar, otaning axloqi, onaning nafosatiga qurilmasligi nikohning qadrsizlanishi, millatning ma'naviy-axloqiy tubanlikka yetaklamoqda. Oila va nikohning tartibga solish faqat jins tarbiyasi, o'g'il bolalarni faqat qizlar tarbiyalay oladi. Yigitlarning "transseksualligi" ruhiy jihatdan erlik biologik hissiyotiga qarshi ayollik nafosatiga mayl bilan tashqi qiyofasini qo'lidan kelganicha ayol nazokatiga "grimlashtirish"da ifodalanadi. Horijiy ilmiy adabiyotlarda transseksuallik o'rniga "jinsiy indentiklikning buzilishi" atamasi kengroq qo'llanilmoqda.

Milliy ta'limning barcha kesimlarida yoshlarning ilm-fan, texnika yutuqlari asosida yuksak malakali mutaxassis bo'lishi uchun beqiyos imkoniyatlar ochilgan bo'lsa-da, ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy salohiyat milliy manzilli aniq qadrlanmagan. Ilmiy daraja uchun diplom yoki unvonlar olish tadqiqotchining ilmiy salohiyati emas, balki statistik hisobot uchun ishlab, ijtimoiy demografiyada olimlarning jinsiy biologik sifat ko'rsatkichlarining pasayishi millatning o'zga stratalarida yanada halokatli namoyon bo'ladi.

Shaxsning jinsi Allohning irodasi bo'lib, bandasining hoxish-irodasidan xolis, unga aralashuv davlatning qo'lidan ham kelmasligi xitoycha demografik dasturda tasdiqlandi. Odamning o'z jinsidan qoniqmasligi, o'zga jinsga mayli, o'zga jinsda bo'lish istagi tashqi omillar ta'sirida psixologik shakllanadi. Shu bois, o'g'il bola bo'lib tug'ilish "ota-onalar xatosi" yoki "tabiatning ta'siri" bo'lolmaydi. Erkak yoki ayol bo'lib odamning dunyoga kelishi baxtning birinchi qadami, tabiatning mo'jizasi, Allohning irodasi bo'lib unga qarshi borish ijtimoiy buzilishdir. Shu ma'noda ta'lim va tarbiyada "yigitning jangchi", "qizning nafosati" ijtimoiy ontologik aksiologiyadir. Davlatning ijtimoiy siyosatida yoshlarning jins tarbiyasi etnokonfessional madaniyat va ma'naviyat talablariga qaratilishi Taraqqiyot strategiyasidir.

Islom olamining ilmiy fatvo markazi Makkai Mukarramada Islom Fikxi Akademiyasi "...erkaklik va ayollik a'zolari to'liq bo'lgan shaxslarni bir jinsdan ikkinchi jinsga aylantirish mumkin emas. Bunday ishni qilishga urinishning o'zi uqubatga loyiq jinoyatdir. Chunki Alloh yaratgan narsani o'zgartirishga urinishdir. Alloh taollo Qup'onda shaytonning gapini naql qilib: "!

Ularga amr qilsam, Allohning yaratganini o‘zgartiralar” degan. (Niso) surasi, 119 oyat). Shu bois islomda to‘liq bir jinsga mansub odamni o‘z jinsini o‘zgartirishi iymondan mosuvo qilishi, musulmonlikdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbek halqining yangi asr nihoyasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy qiyofasi milliy demografik sifat, demografik genetika muammolarini istiqbolli yechimi bilan ta’minlanadi. Jins biologik, fiziologik jihatdan shaxsning o‘zini atrof muhitda o‘zga jinsdan o‘zgacha alohida his etishi, o‘zining ana shu fazilatlarini shaxsiy tuyg‘ularini namoyon etishi bilan baxtlilik ruhiyatini anglab yetishida namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘zining tabiiy jinsni o‘zgartirish huquqiy mumkindiru, lekin o‘z jinsida qoyim bo‘lish ilohiy farzdir. Germofroditlik (xunasa) holati esa yanada o‘ta dolzarb ijtimoiy tibbiy alohida mavzu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Абу Муслим. Жинсни ўзгартириш// <https://oilam.uz/index.php/uz>
2. Weitze C, Osburg S. Transsexualism in Germany// Arch Sex Behav. –1996. –№ 25(4). -P. 409-425.
3. Wilson P, Sharp C. The prevalence of gender dysphoria in Scotland: A primary care study// British Journal of General Practice. –1999. -№ 49. -C. 991-992.
4. Жинс// <https://medlife.uz/>(мурожат санаси 10.09.2023)
5. Мирзахмедов А., Мирзахмедов Х. Семейная жизнь: проблемы отцов и детей// Хронос. – 2021. – № 2(22) – С. 20–30
6. Мирзахмедов А., Пардаева С. Экологическая антропология позитивной евгеники Востока//БИО веб конференций. –2024. –Том 149.
7. Мирзахмедов А., Лукашева Н.М. Религиозность молодежи как предмет философской рефлексии// Социальная политика и социальное партнерство. -2024. – №11. -С.2-18
8. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. –Тошкент.: Hilol-Nashr. 2019. – 608 б.
9. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 3-жуз. –Тошкент.: Hilol-Nashr. 2022. – 640 б.
10. Сафронов В.В., Старцева О.И., Адамян Р.Т., Ибрегимова М.Р. Распространенность транссексуализма в мире// Пластическая хирургия и эстетическая медицина. –2021. –№ 4. -С. 69-76.
11. Ўзбекистонда ахоли ўсиши// <https://www.gazeta.uz/uz/>(мурожаат санаси 12.09.2023)
12. Эр нимага керак? // <https://yandex.uz/video/preview/124387058505863>